BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

NOROV FIRUZ HAQBERDIEVICH

QORIN OLD DEVORI CHURRALARIDA ALLOGERNIO-PLASTIKANI TANLASHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV

14.00.27 – Xirurgiya

TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

УДК: 617.55.-089.844

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

NOROV FIRUZ HAQBERDIEVICH

QORIN OLD DEVORI CHURRALARIDA ALLOGERNIO-PLASTIKANI TANLASHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV

14.00.27 – Xirurgiya

TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.1.PhD/Tib1756 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro Davlat Tibbiyot Institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifaning (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar	**Xakimov Murod Shavkatovich** tibbiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar	**Safoev Baqodir Barnoevich** tibbiyot fanlari doktori, professor
	Maxmudov Ulug‘bek Marufdjanovich tibbiyot fanlari doktori
Yetakchi tashkilot	A.V.Vishnevskiy nomidagi Xirurgiya milliy tibbiyot tadqiqot markazi (Rossiya Federatsiyasi)

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 son Ilmiy Kengashning "____"_____2023 yil soat ____ dagi yig‘ilishida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 200118, Buxoro, Navoiy ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99865) 223-17-53; faks: (+99865) 223-00-50; e-mail: buhmi@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№.____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200118, Buxoro, Navoiy ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (+99865) 223-17-53; faks: (+99865) 223-00-50;

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «____» _____ dagi____raqamli rektor bayonnomasi)

A.Sh. Inoyatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

N.N.Kazakova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.Z.Xamdamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda keng tarqalgan jarrohlik kasalliklaridan biri qorin tashqi churrasidir. Operatsiyadan keyingi ventral churrasi bilan (OKVCh) kasallangan bemorlar soni, qorin churralari bilan og‘rigan bemorlar umumiy sonining 15-18% to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga dunyoda har yili ventral churralar bo‘yicha 1,5 milliondan ortiq jarrohlik aralashuvlari amalga oshiriladi, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 200 000 dan oshadi. Bunda, operatsiyadan keyingi ventral churralari chastotasi bajarilgan laparotomiyalar soniga to‘g‘ri proporsionaldir. O‘rta laparotomiyadan keyin operatsiyadan keyingi ventral churralar bemorlarning 5-30 % da rivojlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, operatsiyadan keyin churraning qaytalanishi bemorlarning 29 % da, birinchi qaytalanish bartaraf etilgandan keyin 35% bemorlarda, ikkinchi qaytalanish bartaraf etilgandan keyin 39 % bemorlarda sodir bo‘ladi.

Jahon miqiyosida operatsiyadan keyingi ventral churralarda churra darvozasi plastikasining ko‘plab usullari mavjud. Mahalliy to‘qimalardan foydalangan holdagi plastik jarrohlik eng keng tarqalgan usul bo‘lib, ularning chastotasi yildan-yilga kamaymoqda. Shu bilan birga, bemorlarda churraning takrorlanishi 20% gacha bo‘lib, asoratli shakllarda esa 40% dan oshdi. Qorin churrasi bilan og‘rigan bemorlarni davolash muammolarining yechimi allomateriallarni keng qo‘llashda topildi. “Qorin devorini to‘rli endoprotezlar bilan mustahkamlashda takrorlanish darajasi 2-3% gacha kamaydi, ammo operatsiyadan keyingi dastlabki va kechki davrlarda operatsiyadan keyingi jarohatda asoratlarning rivojlanish xavfi ortdi”. Operatsiyadan keyingi asoratlar ko‘payishining asosiy sabablaridan biri qorin old devorining to‘qimalarida «yot jism» sifatidagi alloprotezning mavjudligi holati bo‘ldi «…bu seroma operatsiyadan keyingi jarohatlarning yiringlashi ko‘rinishidagi turli xil jarohat asoratlarining rivojlanishiga yordam berdi, bu esa ko‘pincha allotransplantatning qabul qilinmasligiga olib keldi…».[1]

Operatsiyadan keyingi asoratlarning eng keng tarqalgan sababi shundaki, plastika vaqtida ishlatiladigan biosintetik materiallar, ularning xilma-xilligiga qaramay, har doim ham talablarga javob bermaydi, mahalliy reaksiyaga sabab bo‘lishi va yiringli asoratlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa kelgusida operatsiyadan keyingi ventral churra takrorlanishning sababiga aylanishi va allotransplantatning qabul qilinmasligi kabi yanada og‘ir asoratlarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Churralarni davolashda ma’lum yutuqlarga erishilganligiga qaramay, gerniologiyaning ko‘plab masalalari hal etilmagan va munozarali bo‘lib qolmoqda. Shu sababli, qorin old devori to‘qimalarining turli xil sintetik materiallar bilan gistologik muvofiqligi gradatsiyalarini aniqlashga qaratilgan churrani davolashning yanada samarali usullarini ishlab chiqish va jarrohlik amaliyotiga joriy etish, shuningdek, allomaterialni tanlashda differensial yondashuv, ushbu muammoning dolzarbligi va uning muhim ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

[1] Garcia-Urena M.A. Preventing incisional ventral hernias: important for patients but ignored by surgical specialities? A critical review // Hernia. – 2021. – Jan 4. P. 121-125.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli choralar orasida xirurgik kasalliklarga erta tashxis qo‘yish, kompleks davolash, ular asoratlarini kamaytirish va oldini olishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish Strategiyasida ko‘rsatilgan 7 ta ustuvor yo‘nalishning 4-qism 56-maqsadida «Aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlari potensialini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2023 yillarga mo‘ljallangan dasturini amalga oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish...»[2] vazifalari belgilangan. Bugungi kunga kelib farmon ijrosini ta’minlash abdominal jarrohlik sohasida davolashning yangi yuqori texnologiyali usullarini takomillashtirish va joriy etish imkonini bermoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6110-son «Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmonlari, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son «Aholining sog‘lom ovqatlanishini taminlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida» va 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga (VI “Tibbiyot va farmakologiya”) muvofiq amalga oshirildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda operatsiyadan keyingi ventral churra rejali abdominal jarrohlikda eng keng tarqalgan jarrohlik kasalliklaridan biri bo‘lib, uning uchrash chastotasi faqatgina o‘t pufagi toshi xastaliklaridan keyingi o‘rinda turadi (Campanelli G. 2021). Qorin bo‘shlig‘i a’zolari jarrohligida, jarrohlik aralashuvlar tarkibida rejalashtirilgan churra jarrohliklarining ulushi umumiy operatsiyalar sonining 30% gacha yetadi. An’anaviy churra jarrohliklarining 3-10% hollarida yuqori darajadagi qaytalanishi kuzatiladi va takroriy operatsiyalardan keyin esa qaytalanish arifmetik progressiya bilan oshib ketadi. Ushbu muammo to‘rli endoprotezlarni klinik amaliyotga keng joriy etish orqali qisman hal qilindi, bu esa operatsiyadan keyingi asoratlarning chastotasi va og‘irligini ma’lum darajada kamaytirish imkonini berdi (Dewulf M. 2022). Biroq, allogernio-plastikani joriy etish orqali gerniologiyada erishilgan yutuqlar amaliyot jarrohlari oldiga bir qator vazifalarni qo‘yadi, bu esa jarohat asoratlarining ko‘pligi, bitishi qiyin bo‘lgan g‘ovaklarning rivojlanishi va takroriy murakkab hamda keng ko‘lamli jarrohlik aralashuvlarini talab qiladigan

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022-2026 йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисида» ги Фармони

allotransplantatni qabul qilmaslik holatlarining yuqoriligi bilan bog‘liqdir (Sharabaro V.I. 2021).

So’nggi o’n yilliklar davomida biologik va kimyoviy inertlik, mustahkamlik, elastiklik, toksik bo’lmagan bir qator materiallar taklif qilingan bo’lib, bu jarrohlikdan keyingi asoratlarning chastotasi va og’irligini sezilarli darajada kamaytirgan (Davlatov S.S. 2019., Karimov SH.I., Berkinov U.B., 2020., Rustamov E.A., Zeynalov N.J. 2019).

Bu bizni qorin old devori to‘qimalarida qo‘llaniladigan sintetik endoprotezlar bilan gisto-muvofiqligiga ko‘ra bemorlarni ma’lum guruhlarga taqsimlash va allomaterial tanlashga diferensial yondashuv haqida fikr yuritishga undadi, bu esa katta ilmiy va amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy talim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti fakultet va gospital xirurgiya va urologiya kafedrasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq (02.2018.PhD.003) «COVID-19 dan keyingi davrda Buxoro vohasi aholisi salomatligiga ta’sir etuvchi patologik omillarni erta aniqlash, tashxislash hamda yangi davolash profilaktika usullarini ishlab chiqish» (2022-2026 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishlatiladigan materiallarning gistologik muvofiqligini aniqlashga asoslangan alloprotezni tanlashga differensial yondashuv orqali operatsiyadan keyingi churrasi bo‘lgan bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

operatsiyadan keyingi ventral churralarni an’anaviy davolash natijalarini tahlil qilish va qoniqarsiz natijalarning asosiy sabablarini aniqlash;

bir necha turdagi protez materiallaridan foydalangan holda alloprotezlarning gistologik muvofiqligini baholash uchun qorin tashqi churralarining eksperimental modelini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan eksperimental modelga asoslanib, allogernioplastikada eng ko‘p ishlatiladigan materiallarning bitishi samaradorligini baholash;

qorin old devori churrasi bilan og‘rigan bemorlarning klinik va biokimyoviy ko‘rinishini o‘rganish asosida allomateriallarning gistologik muvofiqlik darajasiga ko‘ra klinik guruhlarni aniqlash;

o‘tkazilgan eksperimental va klinik tadqiqotlar asosida operatsiyadan keyingi churralarni davolashning optimal taktikasini ishlab chiqish va tavsiya etilgan tadbirlarning klinik samaradorligini qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida 2011 yildan boshlab 2020 yilgacha bo‘lgan davrda Buxoro viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 1-jarrohlik bo‘limiga va Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasining torakoabdominal jarroxlik bo‘limlarida yotqizilgan operatsiyadan keyingi ventral churra bilan kasallangan 311 nafar bemorlar bo‘lgan.

Tadqiqotning predmeti operatsiyadan keyingi ventral churra bilan og‘rigan bemorlarda churralarni davolashda alloprotezni tanlashga differensial yondashgan holda qo‘llash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi: umumiy klinik, nurli, tajribaviy morfologik va statistik tadqiqot usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi allomateriallar qo‘llaniladigan gernioplastika uchun sintetik endoprotezlarning gistologik muvofiqligini ob’ektiv baholash maqsadida qorin tashqi churralarining eksperimental modeli ishlab chiqilgan.

allogernioplastikada eng ko‘p ishlatiladigan materiallarning bitish samaradorligini baholash, ishlab chiqilgan eksperimental model asosida amalga oshirilgan.

klinik va biokimyoviy profil ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda birinchi marta shkala ishlab chiqildi va operatsiyadan keyingi ventral churra bilan og‘rigan bemorlarni turli allomateriallarning gistologik muvofiqlik darajasiga ko‘ra taqsimlash amalga oshirilgan.

gisto-muvofiqlik darajasiga qarab allomaterial turini tanlashda diffensial yondashuv taklif etilib, qorinning tashqi churralarini jarrohlik yo‘li bilan davolashda takomillashtirilgan yondashuvning klinik samaradorligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat**:**

qorin tashqi churralari allogernioplastikasida ishlab chiqilgan eksperimental modeli bitta tajriba hayvonida bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi allomateriallardan foydalanish imkonini beradi, bu organizmning turli ichki omillarining sodir bo‘layotgan jarayonlarga bir xil ta’siri fonida bitish jarayonlarini yetarli darajada baholash imkonini bergan.

har xil turdagi allomateriallarning bitishini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 2-toifa endoprotezlarni qo‘llashda regeneratorli jarayonlar bir tekisda, fiziologik o‘zgarishlarga yaqin bo‘lgan ahamiyatsizroq chandiqlar bilan kechadi. 1-tipdagi allomateriallar, so‘ngra 3 va 4-tipdagi allomateriallar qo‘llanilganda chandiqli jarayonlar aniqroq namoyon bo‘lishi aniqlangan.

gisto-muvofiqlikni baholashning ishlab chiqilgan tizimi operatsiyadan keyingi ventral churrasi bo‘lgan bemorlarni gisto-muvofiqlik darajasiga ko‘ra taqsimlash imkonini beradi, bu esa turli xil allomateriallardan foydalanishni farqlash imkonini bergan.

to‘rli endoprotez tanlashga diffensial yondashuvning taklif etilayotgan taktikasi operatsiyadan keyingi ventral churrasi bo‘lgan bemorlarni jarrohlik yo‘li bilan davolash natijalarini yaxshilaydigan va operatsiyadan keyingi dastlabki davrda jarrohlik asoratlari chastotasini 15,1% dan 7,2% gacha kamaytiradigan, uzoq muddatli davrda esa 2,9% dan to‘liq yo‘qolishigacha olib keladigan optimal turdagi allomaterialni tanlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi klinik, instrumental, tajribaviy morfologik tadqiqot usullari natijalari ko‘rsatkichlari bilan tasdiqlangan. Statistik ishlov berish olingan natijalarning ishonchliligini tasdiqlgan.

ishda qo‘llanilgan nazariy yondoshuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to‘g‘riligi, tadqiqot ob’ektlari soni yetarliligi, klinik, instrumental,

bakteriologik, sitologik va statistik usullar yordamida ishlanganligi, shuningdek, olingan natijalarning xalqaro hamda mahalliy ilmiy manbalar bilan taqqoslanganligi, xulosa, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlaganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan kelib chiqadiki, gisto-moslashuv darajasiga qarab alloprotezlarning birikish jarayonlari bo‘yicha olingan natijalar operatsiyadan keyingi qorin old devori churralarini davolash va ularni xirurgik yo‘l bilan davolash asoratlarni oldini olish bo‘yicha zamonaviy yutuqlarga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Olingan natijalar fanning turli sohalarida, amaliy sog‘liqni saqlash va o‘quv jarayonida qo‘llanilishi mumkin. Ilmiy ish natijalari talabalar, magistrlar va klinik ordinatorlar uchun operatsiyadan keyingi qorin churralarini xirurgik yo‘l bilan davolashga oid mavzular bo‘yicha o‘quv dasturining mazmuni va tuzilishini takomillashtirish imkonini bergan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, churrani tuzatishga an’anaviy yondashuv samaradorligini tahlil qilish qoniqarsiz natijalarning asosiy sabablarini tekshirishga va kesik churrasi bo‘lgan bemorlarni xirurgik davolashning taktik jihatlarini optimallashtirishga imkon berdi. Ushbu toifadagi bemorlarni jarrohlik davolash natijalari operatsiyadan keyingi asoratlarni statistik jihatdan sezilarli darajada kamaytirgan va bemorlarning hayot sifatini yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Operatsiyadan keyingi ventral churrasi bor bemorlarda allogernioplastikada sintetik endoprotezlarning gistologik muvofiqligini baholash va differensial yondashuv orqali davolash natijalarini yaxshilash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

«Operatsiyadan keyingi ventral churralarni davolashda takomillashtirilgan yondashuvni ishlab chiqish» uslubiy tavsiyanomasi tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2022-yil 5-iyul №8n-z/353-son ma’lumotnomasi). Ushbu uslubiy tavsiyanoma operatsiyadan keyingi ventral churra mavjud bemorlarda gisto-muvofiqlikka asoslangan differensial allogernioplastika usulini tanlash imkonini bergan.

Allogernioplastika usulini tanlashga differensial yondashuvni asoslash orqali operatsiyadan keyingi ventral churrasi bor bemorlarni jarrohlik davolash natijalarini yaxshilash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar sog‘liqni saqlash amaliyotiga, shu jumladan Buxoro shahar tibbiyot birlashmasi rejali jarrohlik bo‘limi va Kogon shahar tibbiyot birlashmasi jarrohlik bo‘limi amaliyotiga tadbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2023-yil 24-yanvardagi 08-01340-sonli xulosasi). Tadbiq qilingan natijalar operatsiyadan keyingi dastlabki davrda jarrohlik asoratlari chastotasini 15,1% dan 7,2% gacha kamaytirishga imkon bergan, uzoq muddatli davrdagi asoratlar nazorat guruhida 2,9% holatda uchragan bo‘lsa asosiy guruh bemorlarda esa bu asorat kuzatilmagan.

Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda taqdim qilingan, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, 10 ta jurnal maqolasi chop etilgan, shundan O‘zbekiston

Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan holda 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 158 ta adabiyotlar manbaasidan foydalanilgan. Dissertatsiya ishi hajmi 107 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsadi va vazifalari asoslanadi, o‘rganish ob’ekti va mavzusi tavsiflanadi. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini sog‘liqni saqlash amaliyotiga tatbiq etish to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan, nashr etilgan ishlar va ilmiy ishning tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Operatsiyadan keyingi churralar muammosining hozirgi holati (adabiyot sharhi)»** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy adabiyot ma’lumotlari, jumladan operatsiyadan keyingi churralarning epidemiologiyasi, ushbu kasallikning rivojlanishidagi etiologik omillar, qorin old devori churralarini jarrohlik yo‘li bilan davolashning zamonaviy yondashuvlari taqdim etilgan, qorin old devorini plastikasi uchun ishlatiladigan barcha materiallarning tasnifi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etildi. Muallif operatsiyadan keyingi ventral churra bilan og‘rigan bemorlarga yuqori sifatli jarrohlik yordamini ko‘rsatish masalalari ochiq va munozarali bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatgan. operatsiyadan keyingi ventral churra bilan har bir bemor uchun individual yondashuv talab etiladi, bu xavf omillarini batafsil aniqlash, jarrohlik texnikasini tanlash va eng maqbul allomaterialni aniqlashdan iborat.

Dissertatsiyaning **«Materialning xususiyatlari va tadqiqot usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida bemorlarning klinik xususiyatlari, bemorlarni davolash vositalari va usullari, klinik laboratoriya va instrumental tadqiqot usullari hamda eksperimental tadqiqot xususiyatlari tasvirlangan.

Buxoro viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining 1-jarrohlik bo‘limi va Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasining torakoabdominal jarroxlik bo‘limiida 2011 yildan 2020 yilgacha kasalxonaga yotqizilgan 311 nafar operatsiyadan keyingi ventral churra bilan kasallangan bemorlarni tekshirish va xirurgik davolash natijalari tahlil qilingan.

Barcha bemorlar ikki klinik guruhga bo‘lib o‘rganilgan. Nazorat guruhi 2016 yildan 2018 yilgacha bo‘lgan davrda rejali allogernioplastika o‘tkazilgan 172 nafar bemordan iborat bo‘lib, allomaterialni tanlash empirik tarzda amalga oshirilgan. Nazorat guruhining klinik materialini retrospektiv tahlil qilishda qorin devoridagi nuqsonlarni plastiklash barcha holatlarda «Djonson va Djonson», «Linteks» «Kollsut», «Duzeymesh» firmalari tomonidan ishlab chiqarilgan nozik katakli polipropilen to‘r yordamida amalga oshirilgan. Asosiy guruh 2019 yildan 2021 yilgacha bo‘lgan davrda operatsiyadan keyingi ventral churra bilan davolangan 139

nafar bemordan iborat bo‘lib, ularga allomaterial va bemorning gisto-muvofiqligini aniqlash asosida alloplastika bajarilgan.

Tahlil qilingan guruhlarda alloprotezlarni qo‘llash mezonlar quyidagilardan iborat bo‘lgan: barcha klinik holatlarda biz allotransplantat o‘rnatishda on lay usulidan foydalandik; klinik guruhlarga faqat bir marta qorin old devorida jarrohlik muolaja qilingan bemorlar kiritilgan (takroriy jarrohlik aralashuvlar paytida biriktiruvchi to‘qima jarayonining kuchayishi faktini hisobga olgan holda, bu esa alloprotezning birikishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin).

Istisno mezonlari operatsiyadan keyingi asoratlar tufayli operatsiyadan keyingi erta davrda qayta operatsiya qilingan bemorlar edi; tadqiqot materialiga kasallikning asoratlari va churra qaytalanishi jarrohlik aralashuvni amalga oshirish texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan va alloplastika tamoyillariga bog‘liqligi kuzatilmagan. Bu allotrasplantatning o‘lchamini tanlashga, shuningdek tikuv materialidan (ipak, kapron va boshqalar) foydalanishga tegishli.

Ushbu ishda biz 1999 yilda Madriddagi XXI Xalqaro gerniologlar Kongressida Chevrel J.P. va Rath A.M. tomonidan taklif qilingan operatsiyadan keyingi ventral churralarda SWR tasnifidan foydalandik.

Ikkala klinik guruhda ham operatsiyadan keyingi churra paydo bo‘lishining sababi anamnezda o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvlar edi (1-jadval).

1-jadval

Anamnezda o‘tkazilgan jarrohlik aralashuvlarning xususiyatlari

O‘tkazilgan operatsiyalar	Nazorat guruhi	Asosiy guruh	t-Styu-dent
Churra kesish	79 (45,9±3,8%)	57 (41,0±4,2%)	0,872
Ochiq xolesistektomiya	28 (16,3±2,8%)	31 (22,3±3,5%)	1,334
Laparoskopik xoletsitektomiya	0 (0%)	1 (0,7±0,7%)	1,004
Jigar va boshqa qorin bo‘shlig‘i organlari exinokokkektomiyasi	6 (3,5±1,4%)	3 (2,2±1,2%)	0,713
Oshqozon yarasida operatsiyalar	9 (5,2±1,7%)	7 (5,0±1,9%)	0,078
Appendektomiya	5 (2,9±1,3%)	3 (2,2±1,2%)	0,421
Pankreonekrozga sababli o‘tkazilgan operatsiyalar	4 (2,3±1,1%)	3 (2,2±1,2%)	0,099
Biliar tizimda rekonstruktiv operatsiyalar	0 (0%)	2 (1,4±1,0%)	1,424
O‘ITda operatsiyalar	7 (4,1±1,5%)	3 (2,2±1,2%)	0,982
Oshqozon osti bezi kistalarida operatsiyalar	1 (0,6±0,6%)	2 (1,4±1,0%)	0,736
Yo‘g‘on ichakning o‘smalarida operatsiyalar	0 (0%)	2 (1,4±1,0%)	1,424
Ginekologik operatsiyalar	21 (12,2±2,5%)	15 (10,8±2,6%)	0,391
Travmalar va teshilgan-kesilgan jarohatlar bo‘yicha operatsiyalar	12 (7,0±1,9%)	9 (6,5±2,1%)	0,176
Nefroektomiya	0 (0%)	1 (0,7±0,7%)	1,004

Joylashuviga qarab, ko‘pchilik bemorlarda o‘rta churra (295 ta holat, 94,9%) kuzatilgan. Faqat 9 (2,9%) holatda bemorlarda appendektomiya va nefrektomiyadan keyin yon tomon churrasi rivojlangan. 7 (2,2%) bemorda qovurg‘a yoyi osti jarrohlik aralashuvlari va Pfannenshtil kesmasi amalga oshirilgandan so‘ng, churraning aralash lokalizatsiyasi rivojlangan (2-jadval).

Birgalikda kechadigan jarrohlik patologiyasini hisobga olgan holda 53 (17,0%) holatda turli xildagi simultan operatsiyalar bajarilgan.

2-jadval

Bemorlarni churralarning joylashishiga qarab taqsimlanishi

O‘tkazilgan operatsiyalar	Nazorat guruhi	Asosiy guruh	t-Styudent
O‘rta; M	163 (94,8±1,7%)	132 (95,0±1,9%)	0,078
Yon tomon; L	5 (2,9±1,3%)	4 (2,9±1,4%)	0,015
Aralash; ML	4 (2,3±1,1%)	3 (2,2±1,2%)	0,099

Operatsiyadan oldingi tayyorgarlik maqsadida barcha bemorlar standart tekshiruvdan o‘tkazilgan, unda turli xil klinik va biokimyoviy qon tahlillari, qorin bo‘shlig‘i organlari UTT, rentgenologik tadqiqotlar, EKG, EGDFS va zarurat bo‘lganda gepatobiliar tizimning MSKT tekshiruvi o‘tkazilgan.

Eksperimental tadqiqotlar TTA vivariyasida o‘rtacha og‘irligi 1900-2400 gramm bo‘lgan oq zotsiz quyonlarida eksperimental va boshqa ilmiy maqsadlarda foydalaniladigan umurtqali hayvonlarni himoya qilish bo‘yicha Yevropa konvensiyasi talablariga qat’iy rioya qilgan holda (Strasburg, 1986) o‘tkazilgan.

Tajriba hayvonlarida o‘rta chiziqning ikki tomonida uzunligi 3 sm gacha bo‘lgan 4 ta kesma amalga oshirilgan. Alloplastika uchun maydoncha tayyorlangach har bir tajriba hayvoniga o‘lchamlari 3,0x1,0 sm bo‘lgan turli xil alloprotezlar (kichik katakli polipropilen, katta katakli polipropilen, ultrapro, akril) implantatsiya qilingan. 10 va 45-kunlarda implantatning bitish darajasini baholash uchun material olingan va morfologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Shu maqsadda belgilangan muddatda tajribadan bittadan quyon olingan va tadqiqot uchun allomaterial implantatsiya zonasidan to‘qimalar olingan.

Dissertatsiyasining **«Jarrohlikdan keyingi qorin churrasi bo‘lgan bemorlarni an’anaviy davolashning klinik natijalari»** deb nomlangan uchinchi bobida jarrohlikdan keyingi qorin churralarini bartaraf etishda an’anaviy ravishda allomaterial empirik tanlangan 172 nafar bemor ma’luamotlari tahlil qilingan.

Nazorat guruhida 24 (14,0%) holatda simultan jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi. 4 (2,3%) bemorda yondosh churrasi bo‘yicha Lixtenshteyn operatsiyasi o‘tkazildi. 16 (9,3%) bemorda churra jarrohligidan so‘ng, qorin bo‘shlig‘idagi bitishmalar yorilib, surunkali kalkulyoz xolesistiti bo‘yicha ochiq xolesistektomiya amalga oshirildi. 2 (1,2%) holatda jigar exinokokkektomiyasi o‘tkazildi. Varikoz kasalligida, 2 (1,2%) holatda Bebkok-Narat flebektomiyasi amalga oshirildi.

Ko‘pgina bemorlarda jarrohlikdan keyingi davr muammosiz kechib, hech bir holatda hayot uchun xavfli asoratlar rivojlanmagan. Bemorlarning kasalxonada bo‘lish muddati 5 dan (jarrohlikdan keyingi davr asoratli bo‘lmaganda) 16

kungacha bo‘lib (jarrohlikdan keyingi davr asoratli bo‘lganda), o‘rtacha 9,1±2,1 kunni tashkil etgan. Klinikadan chiqarilgandan so‘ng bemorlar ambulator davolanishga muhtoj bo‘lib, uning davomiyligi katta amplituda bilan 3 dan 42 kungacha (o‘rtacha 13,1±2,8 kun) o‘zgarib turgan.

Jarrohlikdan keyingi dastlabki davrda asosan jarohat asoratlari kuzatilib, ularning chastotasi 15,1% (26 ta holat)ni tashkil etgan. Alloplastikaning eng ko‘p uchraydigan asoratlari seroma rivojlanishi bo‘lib, bu 18 (10,5%) bemorda qayd etilgan. 5 (2,9%) holatda operatsiyadan keyingi jarohatning infiltrati qayd etilgan. 3 (1,7%) bemorda operatsiyadan keyingi jarohatning yiringlashi qayd etildi (3-jadval).

3-jadval

Nazorat guruhidagi klinik natijalar

Asoratlarning xususiyati	n	V %
ERTA JARROHLIK ASORATLARI	**26**	**15,1±2,7%**
Jarohat asoratlari:	26	15,1±2,7%
Operatsiyadan keyingi jarohat seromasi	18	10,5±2,3%
Operatsiyadan keyingi jarohat infiltrati	5	2,9±1,3%
Operatsiyadan keyingi jarohatning yiringlashi	3	1,7±1,0%
Erta umumiy asoratlar	**8**	**4,7±1,6%**
Operatsiyadan keyingi pnevmoniya	7	4,1±1,5%
Ileofemoral tromboz	1	0,6±0,6%
Keyingi jarrohlik asoratlari	**5**	**2,9±1,3%**
Allotransplantatni qabul qilmaslik	3	1,7±1,0%
Churraning qaytalanishi	2	1,2±0,8%
Jami asoratlar	**39**	**22,7±3,2%**

Operatsiyadan keyingi erta davrda umumiy asoratlarning chastotasi 4,7% ni tashkil etdi (8 bemor). 7 (4,1%) bemorda operatsiyadan keyingi davrda pnevmoniya rivojlandi. 1 (0,6%) holatda 5-kuni ileofemoral vena trombozi rivojlandi.

Operatsiyadan keyingi kechki davrda allotransplantatni qabul qilmaslik 3 (1,7%) holatda qayd etildi, bu takroriy jarrohlik aralashuvni va alloprotezni olib tashlashni talab qildi. 2 (1,2%) bemorda operatsiyadan 1,5 va 2,0 yil o‘tgach, churraning qaytalanishi qayd etildi.

Shunday qilib, amalga oshirilgan allogernioplastikalarning retrospektiv tahlili ma’lumotlarini o‘rganib, biz jarrohlik yo‘li bilan davolashning barcha natijalari ham qoniqarli emas xulosaga kelinadi. Juda ko‘p uchraydigan asoratlar jarohat asoratlari bo‘lib, ularning chastotasi 15,1% ni tashkil etdi. Shuningdek, allotransplantatni qabul qilmaslik chastotasiga (1,7%) e’tibor qaratish lozim.

Natijalarning tanqidiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, to‘rli endoprotezni tanlash ijobiy natijaga erishishda katta ahamiyatga ega, chunki har bir organizm u yoki bu aralashuvlarga, xususan, tanaga "yot jismlar"ning implantatsiyasiga nisbatan muayyan tolerantlikka ega. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, foydalaniladigan

materiallarning gistologik muvofiqligini aniqlashga asoslangan alloprotezni tanlashga differensial yondashuv orqali jarrohlikdan keyingi churrasi bo‘lgan bemorlarni davolash natijalarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotni rejalashtirdik.

Dissertatsiyaning **«Jarrohlikdan keyingi ventral churralarni davolashda differensial yondashuvlar»** deb nomlangan to‘rtinchi bobida bizning ishlanmamiz taqdim etilgan: tashqi qorin churralarining takomillashtirilgan modeli; turli xil allomateriallarni davolash samaradorligini eksperimental baholash keltirilgan; churrasi bo‘lgan bemorlarni allomateriallarning gisto-muvofiqligi darajasiga ko‘ra taqsimlashning ishlab chiqilgan tizimi va operatsiyadan keyingi ventral churrani jarrohlik davolashga takomillashtirilgan yondashuv tasvirlangan.

«Tashqi qorin churralarining eksperimental modelini takomillashtirish» turli xil omillarning turli xil eksperimental hayvonlarda to‘rlarning bitishi jarayonlariga ta’siri faktini barqarorlashtirish uchun biz bir nechta turdagi protezlovchi materiallaridan foydalangan holda alloprotezlarning gistologik muvofiqligini baholashning eksperimental modelini ishlab chiqdik. Biz taklif etayotgan eksperimental modelimizning mohiyati shundan iboratki, biz bir nechta turdagi allomateriallarni qorin old devorining bir xil qismlariga bitta eksperimental hayvonga implantatsiya qilishni taklif qilamiz, bu biz taklif qilayotgan model yuqoridagi kamchiliklardan xalos bo‘lishga imkon beradi.

Usul quyidagicha amalga oshirildi. Tajriba hayvonida (quyonda) qorin o‘rta chizig‘iga parallel ravishda uzunligi 3,0 sm gacha bo‘lgan 4 ta alohida kesma qilingan. Alloplastika uchun maydoncha tayyorlangach, turli xil alloprotezlar implantatsiya qilindi (1-rasm).

1-rasm. Churraning takomillashtirilgan eksperimental modeli.

Shuni ta’kidlash kerakki, eksperimental modelni yaratishning ushbu tamoyili mahalliy xususiyatdagi eksperimental modellarni (jarrohlikdan keyingi jarohatlar, yiringli jarohatlar, yumshoq to‘qimalarning hajmli shakllari va boshqalar) ishlab chiqishda to‘liq qo‘llaniladi, ammo umumiy xususiyat va tarqalishga ega bo‘lgan kasalliklarni ko‘paytirishda foydalanish mumkin emas.

Turli allomateriallarning birikish samaradorligini eksperimental baholash. Plastika uchun ishlatiladigan to‘rlarning eng to‘liq tavsifi N.M.Urmanova (2022) ishida keltirilgan, unga ko‘ra 4 turdagi to‘rlar farqlanadi: 1-toifa - yengil, to‘liq so‘rilishi yoki qisman so‘rilishi (biz tadqiqotimizda “Djonson va Djonson” firmasining “Ultrapro” to‘rlaridan foydalanganmiz); 2-toifa - monolit to‘r (“Reperen” firmasining “Akril” to‘ri); 3-toifa - yengil (25-70 g/m2) makro g‘ovakli (3 mm dan ortiq) so‘rilmaydigan polipropilen yoki politetrafloroetilen to‘rlari (“Koviden” firmasining polipropilen to‘ri); 4-toifa - og‘ir (70-100 g/m2) nozik g‘ovakli (g‘ovak o‘lchami 1 mm) so‘rilmaydigan polipropilen to‘rlar (“Djonson va Djonson” firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan “Prolen” polipropilen to‘rlari).

Biz taklif qilgan modeldan foydalanib, yuqoridagi 4 guruh allomateriallar implantatsiya qilindi, Prolen tipidagi sintetik so‘rilmaydigan monofilament choklari yordamida aponevrozga alloprotez tikildi. 10- va 45-kunlarda implantatsiyani davolash darajasini baholash uchun material olindi va morfologik tadqiqotlar o‘tkazilgan.



Ultrapro. To‘r atrofida perivaskulyar yallig‘lanish infiltratsiyasi.



Akril. To‘r tolalarining shishishi va gomogenizatsiyasi.



Makro g‘ovakli polipropilen. 45-kun. Qon tomir reaktsiyasi, interstitsial kollagenning qo‘pollashishi.



Nozik g‘ovakli polipropilen. Stromaning qalinlashuvi va kollagenizatsiyasi.

2-rasm. Eksperimentning 45-kunida morfologik tadqiqotlar. Gematoksinilon va eozin bilan bo‘yalgan. OK. 10. Ob.20.

O‘tkazilgan morfologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, akril, ultrapro, katta katakli polipropilen to‘rlarda fibroblastlarning erkin kirib borishi va keyinchalik

kollagen tolalari ham tugun birlashmalari, ham implant monotolalari atrofida o‘sishi tufayli fiziologik o‘zgarishlarga yaqinroq bo‘lgan kam chandiqli o‘zgarishlar bilan birga regeneratorli jarayonlar nisbatan bir tekisda kechgan. Katta g‘ovakli to‘rdan foydalanilganda, katta g‘ovaklar ko‘proq tabiiy fibroblastik infiltratsiyani keltirib chiqargan. Akril va ultrapro eng yaxshi reparatsiya ko‘rsatkichi ega, chunki ba’zi tolalar gidrolizga uchrab, ichiga o‘sib boruvchi biriktiruvchi to‘qima uchun joy bo‘shatadi, shu bilan birga tanada qoladigan yot jismning ulushi ham unga bo‘lgan reaksiya ham minimallashtirilgan. Ayniqsa kichik katakli polipropilendan foydalanganda, zich, gipertrofiyalangan biriktiruvchi tolalar shakllanishi bilan yanada yaqqol yallig‘lanish va fibroblastik reaksiya kuzatilgan. Bu fibroblastlarning proliferatsiyasini rag‘batlantiradigan erimaydigan sintetik materialning ortiqchaligi, regeneratorli to‘qimalarning to‘rga nomutanosib darajada o‘sishi, kollagenlashuvni faollashtiradigan yanada yaqqol yallig‘lanish reaksiyasi bilan bog‘liqligi bilan asoslangan.

Barcha materiallarning gistologik muvofiqligi darajasiga ko‘ra churrasi bo‘lgan bemorlarni taqsimlash tizimini ishlab chiqish. Allotransplantatlarning gistologik muvofiqligi darajasini baholash shkalani ishlab chiqish uchun operatsiyadan keyingi davrda asoratlari rivojlangan nazorat guruhidagi 29 bemorda qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazgan. Tekshiruv guruhiga faqat operatsiyadan keyingi jarohat infiltratlari, seromalar, yiringlashlar va transplantatni qabul qilmaslik shaklida o‘ziga xos asoratlar paydo bo‘lgan bemorlar kiritilgan. Ushbu bemorlarda operatsiyadan keyingi 4 oydan 15 oygacha bo‘lgan davrda taklif qilgan skarifikatsiya testidan oldin va keyin IL-4, TNF-α, oksiprolin darajasi aniqlangan va operatsiyadan keyingi chandiq holati ham baholangan.

Oksiprolin darajasini aniqlash bilan skarifikatsiya testini o‘tkazish tartibi quyidagicha amalga oshirilgan: qondagi oksiprolinning boshlang‘ich darajasi aniqlangan. Keyinchalik, provokatsion skarifikatsiya testi o‘tkazilib, uni amalga oshirish uchun bo‘lajak operatsiya davomida kesilishi rejalashtirilgan operatsiyadan keyingi chandiq bo‘ylab skarifikator yordamida uzunligi 5,0 sm gacha bo‘lgan ikkita parallel chiziq tortilagan. 15-20 daqiqadan so‘ng oksiprolin darajasi qayta aniqlandi va skarifikatsiyadan keyin oksiprolin darajasining o‘zgarishi foizi aniqlangan.

Sinov chiziqlari yordamida oksiprolin darajasi aniqlangan. 135 × 15 mm o‘lchamdagi sinov chizig‘idan foydalanilagan (ishlab chiqaruvchi MChJ "Optimum va K", Rossiya). Oksiprolinning miqdoriy tarkibi shkalaga muvofiq aniqlangan. Himoya qog‘ozini olib tashlamasdan, faollashtiruvchi tomonidagi sinov chizig‘i (1) qon zardobiga botiriladi va chiziq natriy metasilikat bilan barqarorlashtirilgan tarkibida vodorod peroksid bo‘lgan (2) darajasigacha namlanguncha kutiladi, keyin suyuqlik tarkibida paradimetilbenzaldegid bo‘lgan (3) darajasigacha ko‘tariladi. Biomaterialda oksiprolinning ortiqcha ekskresiyasida shu darajada rang paydo bo‘ladi. Oksiprolinning miqdoriy tarkibi shkalaga muvofiq aniqlangan (3-rasm).

Jarrohlikdan keyingi jarohatning bitishi va jarrohlikdan keyingi chandiqning tabiatiga qarab, natijalar quyidagicha baholandi:

A’lo - jarrohlik jarohatining chandig‘i, asoratsiz bitgan, mukammal holatda, tekis, ipsimon, rangi va zichligi bo‘yicha atrofdagi to‘qimalar bilan deyarli bir jinsli;

Yaxshi - zich, notekis chandiq, ko‘pincha oqish yoki to‘q qizil rangli matodan bajarilgan, lekin uning o‘lchamlari jarohat sohasidan tashqariga chiqmaydi va teridan yuqoriga chiqmaydi;

Qoniqarli - zich, to‘q qizil, atrofdagi teridan yuqoriga chiqadigan chandiq;

Qoniqarsiz - keloid chandiq.



3-rasm. Oksiprolin darajasining sinov chizig‘i va rang shkalasi.

Nazorat guruhida 5 (2,9%) bemorda jarrohlikdan keyingi jarohatning infiltrati, 18 (10,5%) bemorda - seroma, 3 (1,7%) bemorda - yiringlash va yana 3 ta (1,7%) bemorda allotransplantat qabul qilinmasligi rivojlangan.

Nazorat guruhidagi 29 bemorda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, operatsiyadan keyingi jarohatning infiltrati rivojlanishida yallig‘lanishga qarshi sitokinlarning yallig‘lanishga qarshi ko‘rsatkichlari nisbati koeffitsienti 3,25 dan 4,80 gacha, seromalar rivojlanishida - 1,71 dan 3,25 gacha, operatsiyadan keyingi jarohatning yiringlashida - 1,75 dan 2,00 gacha va allotransplantatni qabul qilmaslikda - 1,0 dan 1,5 gacha o‘zgarib turgan.

Skarifikatsiya testidan so‘ng oksiprolin darajasi quyidagicha: operatsiyadan keyingi jarohat infiltratining rivojlanishida boshlang‘ich darajadan 54-71% gacha, seromalar rivojlanishida – 28% dan 50% gacha, operatsiyadan keyingi jarohatning yiringlashida – 22% dan 29% gacha va allotransplantatni qabul qilmaslikda – 0% dan 14% gacha o‘zgargan.

